SURXONDARYO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI







# SURXONDARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

## 2022- YIL YANVAR-FEVRAL

**2022- yilning yanvar-fevral oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 676,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020- yil ning yanvar-fevral oylariga nisbatan 100,2 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2022- yil 1- mart holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*

**Yillar kesimida soni**




**Hududlar kesimida**




**1 800** — Bino va inshootlar qurish

**426** — Fuqarolik obyektlarini qurish

**572** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yil bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 109,7 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 64,3 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilga nisbatan 104,9 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 15,2 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilga nisbatan 134,0 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 20,5 foiz ulushni va 110,8 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga : | | o‘tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.03.2021- y. | 01.03.2022- y. | |
| Surxondaryo viloyati | 2550 | 2798 | 109,7 |
| Termiz sh. | 762 | 790 | 103,7 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinsoy | 62 | 70 | 112,9 |
| Angor | 149 | 160 | 107,4 |
| Bandixon | 48 | 58 | 120,8 |
| Boysun | 139 | 137 | 98,6 |
| Denov | 157 | 194 | 123,6 |
| Jarqo‘rg‘on | 212 | 236 | 111,3 |
| Qiziriq | 139 | 153 | 110,1 |
| Qumqo‘rg‘on | 144 | 164 | 113,9 |
| Muzrabot | 108 | 120 | 111,1 |
| Sariosiyo | 140 | 160 | 114,3 |
| Termiz | 223 | 244 | 109,4 |
| Uzun | 50 | 65 | 130,0 |
| Sherobod | 89 | 96 | 107,9 |
| Sho‘rchi | 128 | 151 | 118,0 |



# 2022- yil 1- mart holatiga ko‘ra Surxondaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

Termiz sh. (28,2)



Termiz (8,7)




Jarqo‘rg‘on (8,5)





# Qurilish ishlari
# 2022- yil yanvar-fevral uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| **Surxondaryo viloyati** | 676,2 | 54,6 | 498,8 | 122,8 |
| **Termiz sh.** | 157,4 | 5,1 | 144,9 | 7,4 |
| ***tumanlar:*** | | | | |
| Oltinsoy | 6,7 | - | 3,8 | 2,9 |
| Angor | 18,1 | - | 14,0 | 4,1 |
| Bandixon | 8,2 | - | 6,0 | 2,2 |
| Boysun | 37,2 | - | 28,1 | 9,1 |
| Denov | 73,6 | - | 52,9 | 20,7 |
| Jarqo‘rg‘on | 38,6 | 0,3 | 25,0 | 13,3 |
| Qiziriq | 22,8 | - | 18,5 | 4,3 |
| Qumqo‘rg‘on | 44,8 | 12,5 | 26,9 | 5,4 |
| Muzrabot | 17,6 | - | 9,4 | 8,2 |
| Sariosiyo | 102,5 | 36,7 | 52,2 | 13,6 |
| Termiz | 63,0 | - | 55,4 | 7,6 |
| Uzun | 23,7 | - | 19,9 | 3,8 |
| Sherobod | 42,1 | - | 28,2 | 13,9 |
| Sho‘rchi | 19,9 | - | 13,6 | 6,3 |



2022- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 54,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 62,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 4,7 % punktga kamayib, 8,0 % ni tashkil etdi.

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish boʻyicha qurilish-montaj, qayta taʼmirlash, kapital taʼmirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shugʻullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 3,3 % i yoki 2021- yilga nisbatan 49,4 %), Qumqo‘rg‘on tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 27,8 % i yoki 2021- yilga nisbatan 275,6 %) va Sariosiyo tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,8 % i yoki 2021- yiliga nisbatan 53,6 %)ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2022- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 73,8 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yil ko‘rsatkichiga nisbatan 3,9 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 104,5 % ni tashkil etgan holda 498,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**




**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**

**73,8**
2022- yil yanvar-fevral

**69,9**
2021- yil yanvar-fevral



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Denov tumani (52,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 71,9 %), Termiz tumani (55,4 mlrd. so‘m yoki 87,9 %), Boysun tumani (28,1 mlrd. so‘m yoki 75,5 %)ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

**Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 18,2 % ni tashkil etdi yoki 122,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan 110,4 % ni tashkil etdi.**




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **3,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **672,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,5 %** va **99,5 %** ni tashkil etdi.



# Mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-fevral oylarida



| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| Surxondaryo viloyati | 676,2 | 3,5 | 0,5 | 672,7 | 99,5 |
| Termiz sh. | 157,4 | 3,5 | 2,2 | 153,9 | 97,8 |
| *tumanlar:* | | | | | |
| Oltinsoy | 6,7 | - | - | 6,7 | 100,0 |
| Angor | 18,1 | - | - | 18,1 | 100,0 |
| Bandixon | 8,2 | - | - | 8,2 | 100,0 |
| Boysun | 37,2 | - | - | 37,2 | 100,0 |
| Denov | 73,6 | - | - | 73,6 | 100,0 |
| Jarqo‘rg‘on | 38,6 | - | - | 38,6 | 100,0 |
| Qiziriq | 22,8 | - | - | 22,8 | 100,0 |
| Qumqo‘rg‘on | 44,8 | - | - | 44,8 | 100,0 |
| Muzrabot | 17,6 | - | - | 17,6 | 100,0 |
| Sariosiyo | 102,5 | - | - | 102,5 | 100,0 |
| Termiz | 63,0 | - | - | 63,0 | 100,0 |
| Uzun | 23,7 | - | - | 23,7 | 100,0 |
| Sherobod | 42,1 | - | - | 42,1 | 100,0 |
| Sho‘rchi | 19,9 | - | - | 19,9 | 100,0 |

# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-fevral oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **72,6** % i yoki 490,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**8,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 41,8 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **8,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 329,1 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,1 %** ni tashkil etdi.

**67,1 %**

**24,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 119,9 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **24,4 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-fevral oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | 676,2 | 100,2 | 100,0 |
| Termiz sh. | 157,4 | 102,6 | 23,3 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinsoy | 6,7 | 113,5 | 1,0 |
| Angor | 18,1 | 108,9 | 2,7 |
| Bandixon | 8,2 | 110,0 | 1,2 |
| Boysun | 37,2 | 108,9 | 5,5 |
| Denov | 73,6 | 102,5 | 10,9 |
| Jarqo‘rg‘on | 38,6 | 102,2 | 5,7 |
| Qiziriq | 22,8 | 106,9 | 3,4 |
| Qumqo‘rg‘on | 44,8 | 125,6 | 6,6 |
| Muzrabot | 17,6 | 115,4 | 2,6 |
| Sariosiyo | 102,5 | 72,5 | 15,2 |
| Termiz | 63,0 | 115,9 | 9,3 |
| Uzun | 23,7 | 101,8 | 3,5 |
| Sherobod | 42,1 | 106,1 | 6,2 |
| Sho‘rchi | 19,9 | 118,1 | 2,9 |



***Ma’lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

| 2021- yil yanvar-fevral | | 2022- yil yanvar-fevral |
|---|---|---|
| 66,9 % | Bino va inshootlarni qurish | 70,2 % |
| 26,1 % | Fuqarolik obyektlarini qurish | 21,3 % |
| 7,0 % | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 8,5 % |
| 100,0 % | | 100,0 % |

***Ma’lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

***ulushi % da***

| | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral |
|---|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 0,2 | 0,1 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 73,8 | 74,1 |
| Norasmiy sektor | 26,0 | 25,8 |



Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,1 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ka‘maydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko‘payib, 74,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamayib, 25,8 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

**Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 29,1 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 16,8 % punktga kamaydi.**

**Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 70,9 % ni tashkil etdi (16,8 % punktga ko‘payish).**

***ulushi % da***



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 12,5 % punktga ko‘paydi va 21,6 % ni tashkil etdi. Qolgan 78,4 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilga nisbatan 12,5 % punktga kamaydi.

**Hajmi**
**57,7 mlrd. so‘m**

***ulushi % da***

**Hajmi**
**42,2 mlrd. so‘m**

**21,6**
**2022- yil yanvar-fevral**

**2021- yil yanvar-fevral**
**9,1**

**78,4**
**2022- yil yanvar-fevral**

**2021- yil yanvar-fevral**
**90,9**

***Yirik qurilish tashkilotlari ulushi***

***Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi***

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**

Aloqa telefoni: ***(76) 225-65-59***